

TARBIYACHI - MA'NAVIYAT ME'MORI: BOLALARDA FAZILATLI SHAXS KAMOLOTIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Malikova Dildoraxon Qobilovna

**MTTDMQTMOI Ma'naviyat-ma'rifat va
iqtidorli yoshlar yoshlar bilan ishlash
bo'limi metodisti**

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligiga erishishning muhim jihatlari to'g'risida fikr yuritilgan. Xususan, tarbiyachining kasbiy kompetentligi va uning mezonlari, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish borasida xalqaro xorij tajribalaridan taklif va tavsiyalar bayon etilgan. Ta'lim-tarbiyaga erishish uchun bolaning faoliyati va uning muvaffaqiyati eng muhim natijadir. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun ta'lim-tarbiya jarayoni samarali tashkil etilishi muhimligi va bu tarbiyachi-pedagogdan katta mahoratni, intellektual zakovatni va asosiysi pedagogik kompetentlikni talab etadi.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, ta'lim-tarbiya tizimi, kasbiy kompetentlik.

Аннотация: В статье рассматриваются важные аспекты достижения качества и эффективности дошкольного образования. В частности, представлены профессиональная компетентность учителя-педагога и ее критерии, предложения и рекомендации из международного зарубежного опыта относительно развития профессиональной компетентности. Активность и успехи ребенка – важнейший результат достижения образования. Для достижения намеченной цели важно эффективно организовать учебный процесс, а это требует от воспитателя-педагога большого мастерства, интеллектуального интеллекта и, главное, педагогической компетентности.

Ключевые слова: воспитатель, система дошкольного образования, профессиональная компетентность.

Abstract: The article discusses important aspects of achieving the quality and effectiveness of preschool education. In particular, the professional competence of a teacher-teacher and its criteria, proposals and recommendations from international foreign experience regarding the development of professional competence are presented. The activity and success of the child is the most important result of achieving education. To achieve the intended goal, it is important to effectively organize the educational process, and this requires great skill, intellectual intelligence and, most importantly, pedagogical competence from the educator-teacher.

Keywords: educator-teacher, system of preschool education, professional competence

Bolani ma'naviy jihatdan tarbiyalash masalasi barcha davrlarda ham dolzarb bo'lib kelgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy tarbiya ishlarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilyapdi. Buyuk sharq mutafakkurlarining tarbiya masalasidagi qarashlarida tarbiya qancha erta boshlansa shuncha samarasi yuqori bo'lishini ta'kidlanganlar. Uzluksiz ta'lim tizimining

birinchi bo'g'ini sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilgan ma'naviy tarbiya shunisi bilan ahamiyatlidir. Hozirgi kunda bolalarni bilimli va fazilatli etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlariga metodik yordam ko'rsatish dolzarbligicha qolmoqda.

Komillikka intilgan insonlar ulg'ayib bogani sari har bir voqea-hodisa-buyumning, so'z va tushunchalarning mazmunining chuqurroq o'rganishga, anglashga intiladi. Biroq bolalikdan o'rganib qolgan tushunchalar o'rnini almashtirish biroz qiyin kechadi. Bolalikda olgan ma'lumotni ishonchliroq deb qabul qilinadi.[1]

Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda. Bu fazilatlarni amaliy faoliyatga aylantirishda esa maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim tarbiya jarayonlarini o'rni kattadir.

Albatta, odobli bo'lishni o'zi yuksak ma'naviyatli bo'lish uchun kifoya emas, ammo yuksak ma'naviyatni insonni shakllanishida odob-axloqni o'rniga teng keladigan jarayon ta'sirchanligi jihatdan kamroq. Bola shaxsga aylanish uchun u o'zini chuqur taniy bilishi "men"ligini ko'rsatishi kerak. Bu "men"lik asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Bola o'zini tanish, ya'ni inson bo'lish uchun avvalo o'z ona tili, millati, millatning an'analari, qadriyatlari bilan tanisha borish o'tmishi, tarixi, ijtimoiy faoliyatini madaniy-ma'naviy turmush tarzi bilan o'z "men"ligini boyitib borish uchun yuksak ma'naviyatli bo'lishga zamin hozirlaydi.[2]

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ma'naviy va estetik tuyg'ular tarbiya ta'sirida sekin-asta rivojlana boshlaydi. Bu esa kishi shaxsining poydevori bo'ladi, chunki xarakter va axloq belgilari hayotga munosabat ulg'ayganda emas, balki maktabgacha yoshda shakllanadi. Ta'lim juda mas'uliyatli ishdir. Bolalarni tug'ilishidan maktabgacha tarbiyalash haqida gap ketganda, bu ikki baravar mas'uldir. Nimani xohlaganini, nima tashvishga solayotganini, nima yoqishini har doim so'z bilan tushuntirib berolmaydigan kichkina bolani tushunish uchun siz ko'p narsani bilishingiz, tushunishingiz, qalbingiz bilan his qilishingiz kerak.[3]

Ma'lumki, "kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishi bilan bir qatorda, xar bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va xarakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni kayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik murakkab jarayonlarda, noaniq vazifalarni bajarishda, birbiriga zid ma'lumotlardan foydalanishda, kutilmagan vaziyatda o'z-o'zini boshqara olish va muammoga ijobiy yechim topa olishda yaqqol namoyon bo'ladi: Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lin uchun mutaxassis: o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; yangi axborotlarni o'zlashtiradi; davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi; ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Fikrimizcha, mutaxassisning kompetentligini uning shaxsiy salohiyati va kasbi madaniyati, mahoratining asosiy komponentlari sifatida birgalikda ishlatganda yanada mukammallikka ega bo'ladi. Bunday holda, kompetentlik kasbiy faoliyatning eng yuqori darajasi va shaxsiy rivojlanish modeli bo'ladi. Tarbiyachi o'z kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonish uchun shaxsiy professional fazilatlariga: bilimga qiziqish, o'zini bilish va o'zini rivojlantirish; san'at; o'ziga va boshqalarga qat'iylik; tashkilotchilik; kuzatish va hamdardlik; hamkorlika ishlashga moyillik; aniq ma'lumot bilan ishlashga moyillik; diqqatni jamlash qobiliyatiga; rivojlangan leksik qobiliyatga; mantiqiy qobiliyatga; yuqori hissiy barqarorlikka ega bo'lishi talab etiladi.

Tarbiyachining kasbiy kompetentligi tushunchasi pedagog-tarbiyachining shaxsiy imkoniyatlarini ifodalaydi, unga o'zi yoki ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik vazifalarni mustaqil va samarali hal qilishga imkon beradi. Buning uchun u pedagogik nazariyani bilishi, uni amalda qo'llashga qodir va tayyor bo'lishi kerak. Shunday qilib, tarbiyachining pedagogik kompetentligi uning kasbiy faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorligining birligi deb tushunish mumkin. Psixologik, pedagogik va maxsus (mavzu bo'yicha) bilim zarur, lekin bular hech qachon kasbiy kompetentlik uchun yetarli emas. Ularning ko'pchiligi, xususan, nazariy, amaliy va uslubiy bilimlar intellektual va amaliy ko'nikma va malakalarning old shartidir. Tarbiyachining kasbiy kompetentligining tuzilishi uning pedagogik mahorati orqali ochiladi, ular pedagog-tarbiyachining eng xilma-xil harakatlarining kombinatsiyasi bo'lib, ular asosan pedagogik faoliyatning funksiyalari bilan bog'liq bo'lib, ko'p jihatdan tarbiyachining individual psixologik xususiyatlarini ochib beradi.

Oilada katta bo'layotgan, bolalar bog'chalariga qatnashayotgan bolalarimizning baxtiyor bo'lishlari ota-ona, murabbiylar berayotgan tarbiyaga bog'liq. Buning uchun har bir ota-ona, tarbiyachi bolaning ma'naviy boy inson bo'lishini qattiq istashi kerak. Chunki odam bir narsaga qattiq istak sezmasa, hafsala qilmasa, biror ishni bitira olmaydi.[4]

Shu munosabat bilan katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsining ma'naviy-axloqiy sohasini rivojlantirish yo'llarini qidirish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy asoslarni shakllantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'ladi.

Xozirgi sharoitda maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta guruh tarbiyalanuvchilarining ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda quyidagi muommolar mavjud.

- mavjud maktabgacha ta'limning o'quv dasturlarida katta guruh tarbiyalanuvchilarining ma'naviy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan yo'nalishlarning kamligi.

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ma'naviy axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga medodik tayyor emasligi

- maktabgacha pedagogikada mavjud ilmiy ishlanmalar asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilganligi va katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsining ma'naviy-axloqiy asoslarini shakllantirish muammosi bilan bevosita bog'liq ilmiy tadqiqotlarning kamligi, yoki amaliyotga joriy qilinmaganligi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar ma'naviyatini shakllantirish bosqichlarini ishlab chiqish zarur bo'lib fikrimizcha bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- tarbiyalanuvchilar ma'naviyatining shakllanganlik darajasini o'rgani;
- tarbiyalanuvchilar ma'naviyatini shakllantirish muommasining mazmunini aniqlash, shakl va metodlarini tanlash;

-tarbiyalanuvchilar ma'naviyatini shakllantirish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan pedagogik jarayonni amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalar juda ham zehniligi, o'rgatishga oson berilishlari bilan ajralib turadilar. Tarbiyalanuvchilarning ma'naviy fazilatlarini turli metod va vositalarni qo'llab shakllantirishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O.Bozorov «Milliy g'oya va targ'ibot samaradorligi» «Ma'naviyat» Toshkent-2018 y.
2. M.Sharifxo'jaev. Z.Davronov. "Ma'naviyat asoslari" T-2006
3. S.A.Kozlov, T.A.Kulikova «Doshkolnaya pedagogika» Moskva. «Akademiya» 2001.
4. M.Quronov. A.Qodirov. "Baxtli bola ma'naviyati" 3-7 yoshli bolaning ma'naviy tarbiyalash bo'yicha metodik tavsiyalar. Toshkent,2018.
5. D.Q. Malikova. "Oliy ta'lim muassasalarida uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining mazmuni" OAK «Yevrosiyo ilmiy tadqiqotlar jurnali» Impact factor: UIF=8,1 | SJIF= 5.68516 may 2022 yil, 317, 318, 319, 320, 321betlar.
6. A.I.Sherbakov, A. V. Mudrik Psixologiya uchitelya / Pod red. A.V. Petrovskogo. Gl. IX. M., 1991.